

O'zbekiston sun'iy yoki tabiiy resurslarga bog'lanmasdan, o'zining noyob madaniy merosini zamonaviy turizm standartlariga mos ravishda boshqarish orqali jahon turizm xaritasida o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin. Buning uchun:

Transport infratuzilmasini takomillashtirish – temir yo'l, avia va shahar transport tarmoqlarini rivojlantirish;

Innovatsion yondashuvlarni joriy etish – tarixiy obyektlarni raqamlashtirish, virtual turizm imkoniyatlarini kengaytirish;

Mahalliy jamoatchilikni jalb qilish – qishloq turizmi va milliy festivallarni ommalashtirish;

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish – ta'lim, infratuzilma va investitsiya loyihalarida xorijiy tajribadan foydalanish lozim.

Davlat tomonidan uzoq muddatli strategik investitsiyalar, xususiyl sektor ishtirokini oshirish hamda xalqaro hamkorlik orqali O'zbekiston o'z turizm sohasida Fransiyaga o'xshash yuksak natijalarga erishishi mumkin. Shu tariqa, O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun dunyoning diqqatga sazovor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Huang, A., Ozturk, A.B., Zhang, T., de la Mora Velasco, E., Haney, A.(2024). Unpacking ai for hospitality and tourism services: exploring the role of perceived enjoyment on future use intentions. *Int. J. Hosp. Manag.* 119.

2. Ku, E.C.S., Chen, C.-D. (2024). Artificial intelligence innovation of tourism businesses: from satisfied tourists to continued service usage intention. *Int. J. Inf. Manag.* 76.

3. Ansari, N., Tyagi, S., Mehrwal, N., Rastogi, N., Chibber, S., Memoria, M., Kumar, R., Gupta, A. (2022). A critical insight into the impact of technology in transformation of tourist business into smart tourism. In: *2022 International Conference on Machine Learning, Big Data, Cloud and Parallel Computing, COM-IT-CON 2022*, pp. 832–837.

4. Tussyadiah, I. (2020). A review of research into automation in tourism: launching the annals of tourism research curated collection on artificial intelligence and robotics in tourism. *Annals of Tourism Research*, 81.

5. Yulchiyev, A. (2023). Zamonaviy turizmni rivojlantirishda sifatning ahamiyati. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(7), 39-44.

6. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatining mohiyati va uni baholash uslubiyotining nazariy jihatlari. *Science and innovation in the education system*, 2(8), 64-69.

7. Nasridinovna, T. O. (2023). Factors affecting the management of competitiveness in tourism enterprises. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(10), 159-163.

SHAHARSOZLIK VA TURISTIK INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARI

Teshabaeva Odina Nasridinovna

Farg'ona davlat universiteti
„Iqtisodiyot va servis“ kafedrası, i.f.f.n.,
katta o'qituvchi.

Himmatova Gulnoza Komiljon qizi

Farg'ona davlat universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi
1-kurs magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaharsozlik va turistik infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha xalqaro va mahalliy tajribalar o'rganilgan. Shaharlarning jadal rivojlanishi va turizm sektorining ahamiyati ortib borayotgani sababli, zamonaviy infratuzilmaviy yechimlar, innovatsion yondashuvlar va ekologik muvozanatni saqlash masalalari tahlil qilinadi. Dunyoning turli hududlarida qo'llanilgan muvaffaqiyatli tajribalar misolida samarali strategiyalar va yo'l

xaritalari taklif etiladi. Shuningdek, turli madaniy merosga, qadimiy shaharlarga va hayratlanarli landshaftlarga ega davlat sifatida O'zbekiston sayyohlik markaziga aylanish uchun ulkan salohiyatga ega. Biroq bu salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun turizm sohasini takomillashtirish va rivojlantirish bo'yicha birgalikda harakat qilish kerak. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlantirish yo'llarini o'rganib, infratuzilmani rivojlantirish, marketing strategiyalari, madaniyatni saqlash va barqaror amaliyotlarga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: Shaharsozlik, turistik infratuzilma, urbanizatsiya, barqaror rivojlanish, innovatsiya.

Kirish: Bugungi kunda shaharsozlik va turizm sohasi global iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab davlatlar urbanizatsiyani rivojlantirish orqali turizm salohiyatini oshirishga intilmoqda. Bu jarayonda zamonaviy infratuzilmalarni yaratish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonning jozibasi nafaqat moddiy merosida, balki tashrif buyuruvchilar bilan o'z an'ana va urf odatlarini faxr bilan baham ko'radigan xalqining samimiyligi va mehmondo'stligida hamdir. Ushbu madaniy almashinuv yanada chuqurroq aloqalarni mustahkamlaydi va sayyohlik tajribasini boyitadi, bu O'zbekistonni o'z chegaralarida sayohat qilganlarning qalbi va xotirasida saqlanib qoladigan manzilga aylantiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston o'zining tarixiy-madaniy turizmi bilan dunyoda keng tanilgan mamlakatdir. O'zining boy tarixi, ko'p asrlik qadimiy yodgorliklari, bino va inshootlari, masjid va maqbaralari, xonaqohlari, tarixiy va dindor shaxslari bunga misoldir. Ko'p yillardan beri xorijiy sayyohlar mamlakatimizga uzluksiz tashrif buyurishadi. Ammo bu sayyohlar soni yildan-yilga sezilarli darjada oshib borayotganini aytish qiyin. O'zbekiston mamlakati yuqorida sanab o'tilgan infratuzilmalardan tashqari, mustaqil sayohatchilar kategoriyasi uchun muhim sanalgan tog' sahro, daryo, dengiz va o'rmon kabi infratuzilmalarini ham rivojlantirish zarurligini va mamlakatda turizm sohasini barqaror rivojlantirishni ifodalaydi. Aynan ushbu holat mamlakatning jozibadorligi va sayohat turlarining xilma-xilligiga egaligi bilan mustaqil sayohatchilarni ko'proq jalb qilishga undaydi.

Asosiy qism: Turizm infratuzilmasi – turizmni rivojlantirishning asosiy bo'g'ini bo'lib, u hududni rivojlantirish va turizm infratuzilmasi resurslardan oqilona foydalanishga, turistlarga xizmat ko'rsatishga, ularning yashash joylarida zarur va yetarli darajada qulaylik yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga turizmning rivojlanishi mahalliy aholining turmush sharoitini yaxshilashga, masalan, hudud aholisining ish bilan ta'minlanishiga olib keladi. Turizm infratuzilmasi keng ma'noda o'z ichiga turar joy, tadbirlar o'tkaziladigan joylar, parklar, ovqatlanish va ko'ngil ochar maydonlar, madaniyat va san'at obyektlari, transport tarmoqlari, ayriboshlash joylari, aviatsiya, dengiz, turistik yo'nalishdagi yo'llar va boshqalar kiradi. Aeroportlar boradigan joy haqida sayohatchiga birinchi taassurot uyg'otadigan joydir. Shu sababdan havo aloqalarni mustahkam o'rnatish sayohatchilar oqimini ko'paytirish hamda turizmni diversifikatsiya qilish uchun juda katta ahamiyatga ega. Yo'l tarmoqlari va transport tizimi esa, mamlakat ichida harakatlanishni ta'minlaydi. Barcha joylashtirish vositalari esa sayyohlarning og'ir ekskursiyadan keyin dam olishga imkon bersa, ovqatlanish maskanlari xorijiy sayyohlarga milliy ovqatlarni tatib ko'rish hamda tur davomida tetik yurishga imkon yaratdi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning strategik joylashuvi va takomillashgan infratuzilmasi uni xalqaro sayohatchilar uchun yanada qulayroq qiladi. Modernizatsiya qilingan transport tarmoqlari, kengaytirilgan turar joy imkoniyatlari va mustahkamlangan aloqa tufayli O'zbekiston mo'jizalarini o'rganish har qachongidan ham qulay va jozibali bo'ldi.

Bundan tashqari, turizmga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bu infratuzilmadir. O'zbekiston sayyohlar uchun qulaylik yaratish maqsadida transport tarmoqlarini, jumladan, avtomobil yo'llari, temir yo'llar va aeroportlarni modernizatsiya qilishga sarmoya kiritishi kerak. Mamlakat ichidagi aloqani yaxshilash va qo'shni davlatlar bilan transport aloqalarini yaxshilash

nafaqat ko'proq sayyohlarni jalb qilish, balki ularni O'zbekistonning turli hududlarini kashf etishga undaydi.

Turizm infratuzilmasi keng ma'noda o'z ichiga turar joy, tadbirlar o'tkaziladigan joylar, parklar, ovqatlanish va ko'ngil ochar maydonlar, madaniyat va san'at obyektlari, transport tarmoqlari, ayriboshlash joylari, aviatsiya, dengiz, turistik yo'nalishdagi yo'llar va boshqalar kiradi. Aeroportlar boradigan joy haqida sayohatchiga birinchi taassurot uyg'otadigan joydir. Shu sababdan havo aloqalarni mustahkam o'rnatish sayohatchilar oqimini ko'paytirish hamda turizmni diversifikatsiya qilish uchun juda katta ahamiyatga ega. Yo'l tarmoqlari va transport tizimi esa, mamlakat ichida harakatlanishni ta'minlaydi. Barcha joylashtirish vositalari esa sayyohlarning og'ir ekskursiyadan keyin dam olishga imkon bersa, ovqatlanish maskanlari xorijiy sayyohlarga milliy ovqatlarni tatib ko'rish hamda tur davomida tetik yurishga imkon yaratdi. Yuqorida turizm sohasining asosiy infratuzilmasi sanab o'tilgan. Bundan tashqari, birlamchi infraturzilmani to'ldiradigan ikkilamchi infratuzilmalar ham mavjud. Bular keyinchalik mehmonlar kelib ketishidan shakllangan. Masalan, parklar, bog'lar va muzeylar. Qo'shimcha qilib, yo'llar, jamoat hojatxonalari, yo'l ko'rsatgichlar va boshqalarni sanab o'tish lozim. Chunki bu barcha infratuzilmalar turizm sektorining rivojlanishida juda muhim omildir.

Shaharsozlik va turistik infratuzilmaning rivojlanishi o'zaro bog'liq jarayon bo'lib, quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- Transport infratuzilmasi: Aeroportlar, temir yo'llar va avtomobil yo'llarining rivojlanishi sayyohlar oqimini oshiradi.
- Mehmonxona va xizmat ko'rsatish sohasi: Turistik joylarda zamonaviy mehmonxonalar va xizmat ko'rsatish markazlarining mavjudligi muhim.
- Madaniy va rekreatsion ob'ektlar: Muzeylar, teatrlar, tarixiy yodgorliklar va tabiat bog'lari shahar jozibasini oshiradi.

Shuni ham aytish joizki, Singapur shaharsozlik va turistik infratuzilmani rivojlantirishda yetakchi davlatlardan biridir. Shahar rejalashtirish jarayonida quyidagi omillarga e'tibor berilgan:

- Barqaror rivojlanish: Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik infratuzilma.
- Intellektual shahar kontseptsiyasi: Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali turistik xizmatlarning yaxshilanishi.

Agar biz Dubay tajribasiga nazar solsak. Dubayda shaharsozlik va turizm bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida rivojlangan:


- Sun'iy orollar va zamonaviy binolar: Palm Jumeirah, Burj Xalifa kabi innovatsion loyihalar sayyohlarni jalb qiladi.
- Investitsiyalarni jalb qilish: Xorijiy investitsiyalar orqali infratuzilma rivojlantirilgan.

O'zbekistonda shaharsozlik va turizm rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- Tarixiy shaharlarni rejalashtirish: Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish.
- Ekoturizmni rivojlantirish: Chortoq, Chimgan, Zaamin kabi hududlarda tabiiy landshaftni saqlagan holda turistik infratuzilmani rivojlantirish.
- Xalqaro tajribalarni tatbiq etish: Singapur va Dubay modellari asosida infratuzilma va turizm xizmatlarini yaxshilash.

1-rasm.

O'zbekistonda havo yo'li orqali yo'lovchilarning yillik aylanmasi



Ushbu keltirilgan diagramma O'zbekistonda havo yo'li orqali yo'lovchilarning yillik aylanmasi keltirilgan. Bu diagramma orqali biz yurtimizni 2000-yildan to 2022-yilgacha keltirilgan quydagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Yurtimizda 2000-yilda yillik aylanma 3,9ni va 2022-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 13,8 ni tashkil etgan holda oshgan.

Yuqorida ham aytib o'tganimizdek, Aeroportlar, temir yo'llar va avtomobil yo'llarining rivojlanishi sayyohlar oqimini oshiradi.

Turizm infratuzilmasi mahalliy daromadlar va investitsiyalarni ko'paytirishda muhim omildir:

- Soliq tushumlari: Turistik ob'ektlardan olinadigan soliqlar mahalliy byudjetni to'ldiradi va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga yordam beradi.
- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: Zamonaviy va qulay infratuzilma xorijiy investorlar uchun jalb qiluvchi omil bo'lib, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi.

Turizm infratuzilmasining rivojlanishi mahalliy jamoalar farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi:

- Hayot sifati yaxshilanishi: Zamonaviy transport, sog'liqni saqlash, va jamoat xizmatlarining rivojlanishi mahalliy aholining hayot sifatini oshiradi.
- Madaniyat va urf-odatlarining saqlanishi: Turizm orqali mahalliy madaniyat va an'analarni targ'ib qilish imkoniyati ortadi, bu esa ularning asrashiga yordam beradi.

Bugungi raqamli asrda turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun texnologiyadan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston tashrif buyuruvchilar tajribasini soddalashtirish va sayyohlarga real vaqtda ma'lumot taqdim etish uchun Wi-Fi ulanishi, mobil ilovalar va onlayn bron qilish platformalari kabi raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritishi mumkin. Bundan tashqari, raqamli belgilar, yo'lni aniqlash tizimlari va virtual reallik tajribasi kabi aqlli texnologiyalarning integratsiyasi umumiy turizm infratuzilmasini yaxshilashi va tashrif buyuruvchilar uchun immersiv va interaktiv tajribalarni yaratishi mumkin.

Infratuzilmani rivojlantirishda barqarorlik va barqarorlikka ustuvor ahamiyat berish juda muhimdir. Barqaror turizm infratuzilmasi atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish, tabiiy resurslarni saqlash va mahalliy hamjamiyatlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. O'zbekiston turizm faoliyatidagi uglerod izlarini kamaytirish uchun yashil qurilish amaliyotlarini, qayta tiklanadigan energiya yechimlarini va ekologik toza transport imkoniyatlarini qo'llashi mumkin.

Bundan tashqari, turizm infratuzilmasining barqarorligini oshirish tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishi ta'siri va ijtimoiy-iqtisodiy buzilishlar kabi xavflarni oldindan ko'rish va yumshatishni o'z ichiga oladi, bu esa turizm sektorining uzoq muddatli hayotiyliigi va barqarorligini ta'minlaydi.⁶

Xulosa qilib aytganda, Shaharsozlik va turistik infratuzilmani rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: barqaror shaharsozlik strategiyasini ishlab chiqish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish, ekologik muvozanatni saqlashga e'tibor qaratish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokir Mamadiyarov, Raximjon Maxmudov, Mokhichehra Qurbonbekova, Mukhlisa Mahmudova, Nasiba Sattorova. (2022). Ensuring the Stability of Banks During Covid-19 Pandemic. *Journal of Financial Technology and Innovation*, 1 (2), 15-21
2. Hussain, A., Khan, M., Rakhmonov, D.A., Mamadiyarov, Z.T., Kurbonbekova, M.T., & Mahmudova, M.Q. (2023). Nexus of Training and Development, Organizational Learning Capability, and Organizational Performance in the Service Sector. *Sustainability*.
3. Mamadiyarov, Z., Azlarova, A., Norov, A., Mahmudova, M., & Bazarova, N. (2020). Covid 19 «visits» to banking institutions-Yesterday, today and tomorrow. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7 (2), 6179-6188.

SEULNING AQLLI SHAHAR KONSEPSIYASI: RAQAMLI TEXNOLOGIYLAR VA TURIZM INTEGRATSIYASI

Umarov Omonjon

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi
umarovomonjon1994@gmail.com

G'aybillayeva Nozima

Qo'qon universiteti Mehmonxona va
turizmni boshqarish yo'nalish talabasi
nozimagaybulayeva261@gmail.com

Annotatsiya: Seul, Janubiy Koreya, dunyoning eng rivojlangan aqlli shaharlaridan biri sifatida, raqamli texnologiyalarni turizm sohasida integratsiya qilishda yetakchi tajriba taqdim etadi. Shahar, aqlli infratuzilma va innovatsion texnologiyalar yordamida turizmni rivojlantirish, xizmat ko'rsatishni yaxshilash va sayohatchilarga yangi tajribalarni taqdim etishda muvaffaqiyatli natijalarga erishgan. Raqamli texnologiyalar, masalan, Internet of Things (IoT), sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data), Seulning turizm sohasida samarali boshqaruv tizimlarini yaratishga yordam berdi. Shahar, mobil ilovalar, aqlli mehmonxonalar va raqamli platformalar orqali sayohatchilarga real vaqt rejimida ma'lumotlar taqdim etish, transport tizimlarini optimallashtirish va turistik tajribani interaktiv qilish imkonini yaratdi.

Kalit so'zlar: Aqlli shahar (Smart City), Raqamli texnologiyalar Internet of Things (IoT), Sun'iy intellekt (AI), Big Data (Katta ma'lumotlar), Turizmni raqamlashtirish, Turizm integratsiyasi, Seul turizmi Aqlli transport tizimi, Raqamli turizm tajribasi, Virtual turizm Mijozga yo'naltirilgan texnologiyalar.

Kirish: Seul, Janubiy Koreya, bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan aqlli shaharlaridan biri sifatida tanilgan. Aqlli shaharlar konsepsiyasi, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali shaharlar infratuzilmasini yaxshilash, yashash sifatini oshirish va iqtisodiyotni barqaror ravishda rivojlantirishni maqsad qilgan. Seul, aqlli shahar sifatida turizm sohasida ham raqamli

⁶ Mamadiyarov, Z., Azlarova, A., Norov, A., Mahmudova, M., & Bazarova, N. (2020). Covid 19 «visits» to banking institutions — Yesterday, today and tomorrow. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7 (2), 6179—6188.